XALQ DEPUTATLARI SARIOSIYO TUMANI KENGASHI

Sariosiyo tumani, A.Qahhor ko‘chasi 1-uy, 191001, tel.: 76-48-7-64-62, faks: 76-48-7-66-66, sariosiyo.t@exat.uz

2023 - yil 23 - fevral VI-52-25-8-116-K/23 Sariosiyo tuman hokimligi

Sariosiyo tuman mahalliy budjetining 2023-yil boshidagi erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan mablag‘ ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi qonuniga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi **qaror qiladi:**

1. O‘zbekiston Respublikasining “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi qonuni bilan tuman mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalaridan foydalanish tartibi belgilab qo‘yilganligi rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman mahalliy budjetining 2023-yil boshidagi erkin qoldiq mablag‘lari 507,0 mln so‘mni tashkil etganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tuman hokimligining kiritgan takliflari asosida tuman mahalliy budjetining 2023-yil boshidagi erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan 507,0 mln so‘mni 1-ilovaga muvofiq xarajatlarga yo‘naltirilsin.

4. Mahalliy budjetning qo‘shimcha shakllangan mablag‘lari favqulodda vaziyatlarda va shunga o‘xshash kechiktirib bo‘lmaydigan choralar ko‘rilishi talab etiladigan hollarda Kengashga keyin hisobot berish sharti bilan hokimning farmoyishi asosida yo‘naltirilishi mumkinligi belgilansin va shu asosda tuman hokimligining farmoyishi tasdiqlansin.

5. Tuman mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalari tuman budjeti hisobidan moliyalashtirilishi nazarda tutilmagan tashkilotlarni joriy saqlab turish xarajatlari uchun yo‘naltirilishiga yo‘l qo‘yilmasligi belgilansin.

6. Tuman mahalliy budjetining 2023-yil boshidagi erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan yo‘naltirilgan mablag‘lar to‘g‘risida xalq deputatlari tuman Kengashiga chorak yakuni bilan tuman hokimi tomonidan hisobot berib borilishi belgilansin.

7. Tuman budjetining qo‘shimcha manbalaridan mablag‘ oluvchilarning rahbarlari ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanilishi, shuningdek, ushbu mablag‘larni ajratilishi uchun taqdim etiladigan barcha hujjatlarning haqqoniyligiga shaxsan javobgar ekanligi belgilansin.

8. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari Sariosiyo tuman Kengashining mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiya va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi S.Asadov zimmasiga yuklatilsin.

9. Ushbu Qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Sessiya raisi **O.Jo'rabekova**

Xalq deputatlari Sariosiyo tuman
Kengashining
2023 yil 23 fevraldagi
VI-52-25-8-116-K/23-son qaroriga
1-ilova

Sariosiyo tuman mahalliy budjetining 2023-yil boshidagi erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan ajratiladigan mablag‘lar

T/r	Mablag‘ yo‘naltirilgan tashkilot nomi	Ajratiladigan mablag‘ maqsadi	Mln. so‘m hisobida	Foiz hisobida
		Jami shakllangan manba	**507,0**	**100,0%**
		shundan:		
		Jami ajratiladigan mablag‘:	**507,0**	**100,0%**
1	**Tuman hokimligi**	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 22-avgustdagi “Budjet ma’lumotlarining ochiqligini va budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3917-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida “Ochiq-budjet” (Openbudget,uz) portaliga tushadigan jamoatchilik fikrini inobatga olib sarflash sharti bilan, Sariosiyo tuman hokimligida tashkil etilgan tashabbus jamg‘armasi maxsus hisob raqamiga 30%	152,0	***30,0%***
		Tumandagi “Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash Jamg‘armasiga tuman mahalliy budjetining daromadlar rejasining oshirib bajarilgan mablag‘lari hisobidan maxsus hisob raqamiga o‘tkazish uchun 15%	76,0	***15,0%***
		Tumandagi “Ayollar daftari”ga kiritilgan ayollarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash Jamg‘armasiga tuman mahalliy budjetining daromadlar rejasining oshirib bajarilgan mablag‘lari hisobidan maxsus hisob raqamiga o‘tkazish uchun 15%	76,0	***15,0%***
		O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-iyuldagi 459-son qaroriga asosan ijtimoiy himoyaga muhtoj aholining ipoteka kreditlari bo‘yicha qarzdorliklarini so‘ndirish jamg‘armasiga 5%	25,0	***5,0%***
		O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrdagi "Respublikada ko‘kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PF-46-son farmoniga asosan daraxt va butalarning zararkunandalari hamda kasalliklariga qarshi kurashish tadbirlariga 2%	10,0	***2,0%***
		O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi “Mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar ustidan jamoatchilik nazorati samaradorligini shuningdek, fuqarolarning demokratik o‘zgarishdagi faolligini oshirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4473-sonli qarori hamda viloyat hokimligining 2021-yil 28-aprel kunidagi 02-01/159-sonli yig‘ilish bayoni ijrosini ta’minlash maqsadida Tuman Ko‘zi ojizlar jamiyati xodimlariga 2022 yil 4-choragida ishlagan davri uchun ish haqi sifatida	15,3	***3,0%***
		Tuman hokimligining yil davomida o‘tkazilishi lozim bo‘lgan tadbirlarni o‘tkazish uchun madaniyat bo‘limi xarajatlariga qisman to‘lov	62,0	***12,2%***
		Tumanni iqtisodiy infratuzulmasini yaxshilash, tadbirlar va tuman hokimligi, tuman Obondonlashtirish boshqarmasining ayrim xodimlariga qo‘shimcha ish haqi to‘lash hamda boshqa xarajatlar uchun	70,7	***13,9%***

2	**Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi**	Tumandagi og‘ir hududlarga joylashgan "Boysunobod" va "Chilonzor" mahallalarining ichki yo‘llarini toshlash bilan bog‘liq xarajatlar uchun	20,0	***3,9%***